FARG‘ONA VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI





# FARG‘ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022-YIL YANVAR***
***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



# Farg‘ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022-yil yanvar oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar oylarida Farg‘ona viloyati korxonalari tomonidan 1 854,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 92,1%ni tashkil etdi.

| 0,3% | 92,1% | 7,0% | 0,6% |
|---|---|---|---|
| B | C | D | E |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da

| | 2021-yil yanvar | 2022-yil yanvar |
|---|---|---|
| B | 52,0 % | 51,6 % |
| C | 110,2% | 111,9 % |
| D | 97,8% | 76,7 % |
| E | 80,4% | 122,0 % |

**Table 2. Ma’lumotlar:**

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 11,9 %ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,4 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022-yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 708,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,1%ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar** — 92,0 %

**2022-yil yanvar** — 92,1%

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 %ni (2021-yilning yanvar oylarida – 0,2 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 7,9 % (4,6 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 19,4 % (21,9 %) va quyi texnologiyalisi – 64,2 % (65,2%)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,4 % (2021-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,5%), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 49,9% (2021-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,0 % (2021-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 91,6%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,4% (2021-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 170,7%)ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da*


















Neft bitumi ming t




Aroq ming litr
100% spirt




Uzum vinosi ming l




Paxta chigiti ,
ming tonna




Paxta linti ming t




*2022-yilning yanvar oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 12,4 ming tonna avtomobil benzini (2021-yilning yanvar oyiga nisbatan 22,8 %ga oshgan), 22,6 ming tonna dizel yoqilg'isi (12,4 % oshgan), 10,5 ming. tonna kalava ip mahsulotlari hamda 5560,3 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar | 2022-yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| Avtomobil benzini, ming t | 12,4 | 10,1 | 22,8 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t. | 19,3 | 23,7 | -18,5 |
| O'simlik yog'i ( qayta ishlangan) – ming tn | 2,1 | 4,5 | -53,3 |
| Paxta urug'lari, ming t | 13,0 | 7,1 | 84,2 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish




### Yoqilg'i moyi - Ming. t

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 6,8 | 5,9 |



### Dizel yoqilg'isi Ming. t

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 22,6 | 20,1 |




### Portlandsement . t

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 51,4 | 47,4 |

### Paxta urug'lari-Ming. tonna



| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 13,0 | 7,1 |

*Farg'ona viloyatida 2022-yil yanvar oylarida jami 154,9 ming tonna karbamid mahsuloti ishlab chiqarildi. Shuningdek dizel yoqilg'isi ishlab chiqarish 14,5 % ortib , portlandsement ishlab chiqarish 27,1% kamaygan . Etil spirt ishlab chiqarish 18255,0 ming litrni tashkil etgan va 19,5 % kamaygan.*

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar oylarida metallurgiya sanoati 8,6 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,7 %ni, 2022-yilning yanvar oylarida metallurgiya sanoati 13,4 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,8%ni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 126,0 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 9,9 %ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 216,9 mlrd so‘mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 12,7 %ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 280,5 mlrd so‘mni, joriy 2022-yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 269,8 mlrd so‘mni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajmi 8,6 %ga kamaygan.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 4,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 2,8 mlrd. so‘mni tashkil etib 1,8 mlrd. so‘mga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etdi.*

2021- yil 4,6

2022- yil 2,8

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021-yil 525,9

2022-yil 781,7

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 525,9 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning jami ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 41,3 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 781,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 45,8 %ni tashkil etdi va 4,5 punktga ko‘paydi .*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021-yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,2 %ni yani jami 41,2 mlrd so‘mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 2,8%ni tashkil etib 47,2 mlrd. so‘mga tengdir. Farg‘ona viloyatida kiyim ishlab chiqarish o‘tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 5,9 mlrd. so‘mga ortgan.*

2021-yil 41,2

2022-yil 47,2

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021-yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 39,8 mlrd. so‘mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar oylarida Farg‘ona viloyati bo‘yicha 86,1 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 5,0 %ni, tashkil etdi.*




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




*2021-yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 127,9 mlrd. so‘mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 10,0 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 76,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021-yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,0 %ni yani 12,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish o‘tgan yilga nisbatan 11,1 mlrd. so‘mga ko‘paygan. Ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 1,4 %ni yoki 23,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 129,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,0 %ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 30,8 mlrd so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar | 2022-yil yanvar | Farqi (+/-) |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | 29,1 | 28,1 | -1,0 |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | 169,8 | 130,5 | -39,3 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,3 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.




| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar | 2022-yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m*** | 0,9 | 1,7 | 0,8 |
| **Axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mln.so‘m*** | 6,2 | 7,2 | 1,0 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 1,7 mird. so‘m yoki 89,5 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 16,5 %ga ko‘paygan.

# Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 464,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 113,5%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 25,1%ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari

| 2021-yil yanvar | 2022-yil yanvar |
|---|---|
| 46,2% | 50,0% |

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

| 2021-yil yanvar | 2022-yil yanvar |
|---|---|
| 53,8% | 50,0% |

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 2,7 mlrd so‘mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib 15,5 %ni va Qo‘qon shahrida 14,3 %ni tashkil etdi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib, 70,4 mlrd. so‘mni yoki jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 15,5 %i, Qo‘qon shahrida 65,1 mlrd so‘mni jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 14,3 %i shuningdek, Farg‘ona shahri 51,2 mlrd. so‘mlik, 11,2 %ni tashkil etdi.*




**409,8** mlrd. so‘m

*2021-yil yanvar*

**464,9** mlrd. so‘m

*2022-yil yanvar*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** **86,3%**

**2022-yil** **113,5%**

## Farg‘ona viloyati hududlari kesimida Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshloq tumaniga to‘g‘ri kelib, 17,8%ni, shuningdek, Qo‘qon shahri 16,9%ni, Farg‘ona shahri 15,1%, Uchko‘prik tumani 8,9%ni tashkil etdi.*

### Farg‘ona viloyati

**2021-yil**
*1 383 ,2 mlrd. so‘m*

**2022-yil**
*1 854 ,6 mlrd. so‘m*
*yanvar*



**2021-yil** 81,4 %

**2022-yil** 108,7 %



## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshloq tumaniga to‘g‘ri kelib, 10,4% shuningdek, Beshariq tumani 6,6 %, Qo‘qon shahri 6,2 %ni tashkil etadi.*

**269,9** *mlrd. so‘m*

*2021-yil yanvar*

**232,5** *mlrd. so‘m*

*2022-yil yanvar*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** 78,4 %

**2022-yil** 139,7 %



## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib 10,1 %ni, shuningdek, Farg‘ona shahri 5,7% ni, Qo‘qon shahri esa 7,9 %ni tashkil etdi.*




*232,0 mlrd. so‘m*
*2021-yil yanvar*

*232,4 mlrd. so‘m*
*2022-yil yanvar*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** **98,1 %**

**2022-yil** **96,3 %**

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga, Qo‘qon shahrida (1218,0 ming.so‘m) hamda Toshloq tumanida (1589,1 ming.so‘m),Quvasoy shahrida (956,1 ming so‘m), Farg‘ona shahrida (942,8 ming so‘m).*




*o’sish sur’ati*

*ming. so‘m*

### Farg‘ona viloyati

**2021-yil** — 363,3 mlrd. so‘m

**2022-yil** — 408,7 mlrd. so‘m



02 — 2021-yil — 79,9%

04 — 2022-yil — 106,7%

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 120,5 ming so‘m bo‘lgani holda, Uchko‘prik tumanida 294,2 ming so‘mni, Qo‘qon shahrida 253,4 ming so‘mni, Farg‘ona shahrida 173,6 ming so‘mni, tashkil etdi.*

### Farg‘ona viloyati

**2021-yil**
132,6 ming. so‘m

**2022- yil**
120,5 ming. so‘m



**2021-yil** 84,7 %

**2022-yil** 111,3 %



# Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2022-yilning yanvar  oylarida %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 707,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,1 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Beshariq, So‘x, Furqat, Yozyovon tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan . Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumani (87,1%), Bag‘dod numani (76,8%), Buvayda tumani 74,1%),Dang‘ara tumani (55,8%), Rishton tumani (46,1%) tashkil etgan holda eng past ulushli hududlar Toshloq tumani(12,3%),Farg‘ona tumani (13,8%), Quvasoy shahri (24,4%) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



## Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida 10474 ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ulardan 10033 faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1421 tasi (faoliyat ko‘satayotgan korxonalar umumiy sonining 14,2 %) Qo‘qon shahriga, 1139 tasi (11,4%) Farg‘ona shahriga, 1034 tasi (10,3 %) Marg‘ilon shahriga, 676 tasi (6,7%) Uchko‘prik tumaniga, 595 tasi (5,9 %) O‘zbekiston tumaniga, 578 tasi (5,8 %) Buvayda tumaniga to‘gri kelmoqda.




### Jami yangi tashkil etilgan

**2021-yil** — 153 dona

**2022-yil** — 110 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2021-yil** — 9193 dona

**2022-yil** — 10033 faol korxona

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi
“Sanoat statistikasi bo‘limi”

*Tel.: 73-241-96-28*